



## SERGEY YESENIN LIRIKASIDA METEOROLOGIK TASVIR

**Nuraliyeva Ozoda Narbayevna**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada rus shoiri Sergey Yesenin ijodida tabiat hodisalarining poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir lirikasida fasllar yoki tabiat hodisalari inson ruhiy olami, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni o'zida mujassamlashtirganligi tahlillar orqali ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** lirika, meteorologiya, peyzaj, metafora, klimatologiya, badiiy olam, ruhiy holat, ijtimoiy muhit.

**Аннотация.** В данной статье анализируются поэтические особенности природных явлений в творчестве русского поэта Сергея Есенина. Анализ показывает, что в лирике поэта времена года или природные явления воплощают изменения в духовном мире человека и общественной жизни.

**Ключевые слова:** лирика, метеорология, пейзаж, метафора, климатология, мир искусства, психическое состояние, социальная среда.

**Abstract.** This article analyzes the poetic features of natural phenomena in the work of the Russian poet Sergei Yesenin. The analysis shows that in the poet's lyrics, seasons or natural phenomena embody changes in the human spiritual world and social life.

**Keywords:** lyrics, meteorology, landscape, metaphor, climatology, artistic world, mental state, social environment.

Jahonda bo'layotgan har bir voqea, hodisalar adabiyotda o'z ifodasini topgan. Mana shu tarixiy voqelik ijodkorlar nigohida ma'lum bir klimatologik hodisalar orqali o'z tasviriga ega bo'la boshlangan. Chunki insoniyat tarixi doimo iqlim va ob-havo sharoitlari bilan hamnafas shakllangan. Adabiyotshunoslkda meteriologik tasvirlar ko'p hollarda lirik qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qilsa-da, tarixiy kontesktida ular yanada kengroq – ijtmoiy-siyosiy metafora va hujjatli dalil vazifasini o'taydi. Badiiy matndagi har bir "atmosferik holat" ma'lum bir tarixiy davrning ijtimoiy haroratini ko'rsatadi. Tarixiy evrilishlar, urushlar yoki inqiloblar davrida yaratilgan asarlarda tabiat ko'pincha g'azabnok, tartibsiz va apokaliptik tarzda (to'fonlar, qora bulutlar, chaqmoqlar) tasvirlanadi. Bu esa jamiyatdagi barqarorlikning buzilganligiga ishora etadi. Ayrim tarixiy voqealarning kelib chiqishiga meteriologik omillar sabab bo'lishi ham mumkin. Adabiyotda ayoz



tushunchasiga e'tibor qaratilsa, u shunchaki sovuq emas, balki bosqinchilarga qarshi turgan "tabiiy adolat" yoki "milliy himoyachi" sifatida mifologizatsiyalashtiriladi. Bundan tashqari bahor tushunchasiga nazar tashlansa, unda erkinlikka erishish, yoki adolat tantanasi ifoda etiladi. Demak, ma'lum bir klimatologik hodisalar tarixiy jarayonni ko'rsatishga ham xizmat qiladi:

*Не ветры осыпают пуши, // Не листопад златит холмы.*

*С голубизны незримой кущи// Струятся звездные псалмы.*

*Я вижу – в просиничном плате, // И а легкокрылых облаках,*

*Идет возлюбленная// Мати С Пречистым// Сыном на руках.*

*Она несет для мира снова// Распятъ воскресшего*

*Христа: «Ходи, мой сын, живи без крова, // Зорюй и полднью у куста».*

*И в каждом страннике убогом// Я визнавать пойду с тоской,*

*Не Помазуемый ли Богом// Стучит берестяной клюкой.*

*Стихотворения И может быть, пройду я мимо// И не замечу в тайный час, Что в елях – крылья херувима, // А под пеньком – голодный.*<sup>6</sup>

(She'rning o'zbek tilidagi tarjimasi (tarjima o'zimizniki): Shamol emas o'rmonni to'kkan, // Xazon emas oltin tepalar. // Ko'rinmas ko'k chodirdan cho'kkan, // Yulduzlardan oqar xutbalar. // Ko'rdim – moviy ro'mol ichra u, // Yengil qanot bulutlar aro, // Kelmoqda ul sevikli Ona, // Bag'rida Pok Farzand bor go'yo. // Yana dunyo uchun keltirar, // Tirilganni mixlamoqqa u: // "Yurgil, o'g'lim, boshpanasiz yasha, // Butalar ostida tong ottir, kun bo'l". // Va har gado, g'arib yo'lovchida // Men izlayman chekib fig'onlar: // Xudo yorlaqagan zotmikin, // Taqillatgan po'stloq asolar? // Yurakda g'am, balki bilmayin // O'tib ketgum o'sha pinhon payt – // Archalarda malak qanoti, // To'mtoq to'nka ostida Och Zot...) S.Yesenin qalamiga mansub ushbu she'r 1914-yilda birinchi jahon urushi boshlangan, Rossiya imperiyasi ijtimoiy va siyosiy inqirozlar bo'ronida qolgan davrda yaratilgan. Urush va ochlik arafasida rus xalqi orasida "Oxirat yaqin", "Masih yerga gado qiyofasida qaytib kelib, odamlarni sinayapti" – degan diniy qarashlar kuchaygan holatni tasvir etadi. S.Yesening mazkur she'rida Rossiya qishloqlari bo'ylab kezib yurganligi bois har bir mayib-majruh yoki gado kimsada ("страннике убогом") Iisus Xristosni ko'radi. Shoir ijodining ilk davrlaridayoq uslubiga xos bo'lgan xususiyat mazkur she'rda ham o'z ifodasini topib, tabiat bilan dinni sintezlashtiradi. Shuning uchun ham mazkur she'rda rus diyoridagi o'rmon va tepaliklar Xudoning ibodatxonasiga aylanadi. Katta ijtimoiy fojialar oldidan shoir tabiat va dindan panoh qidiradi. She'rda kuz faslining so'nggi kunlari yoki qish boshlanishidagi tungi sokinlik, tiniq ob-havo holati meteorologik tasvirlar orqali

<sup>6</sup> Есенин С. Полное собрание сочинений. – Москва: Наука, 1995. – С. 32.



diniy va mifologik darajada tasvirlab borilaveradi. Birinchi satrlardayoq shoir dinamik harakatni inkor etadi, ya'ni shamol esmaganligi bois ham barglar to'kilishi to'xtagan. Bunday sokin va sovuq havo oqimi natijasida shamolning tamoman tinishi, uning yo'qligi sabab osmon tiniqlashgan va yulduzlar yorqin porlaydi. Shoir bunday holatni yulduzlar psalmi (duosi) sifatida ta'kidlaydi ("струи звездные псалмы"). Shoir osmonda Bibi Maryamni "на легкокрылых облаках" (yengil qanotli bulutlar) bag'rida joy olgan deya e'tirof etadi. Aslida bunday qatlamli bulutlar meteorologik jihatdan juda balandda joylashgan bo'lib, yengil bo'lgan patli bulutlar sifatida e'tirof etiladi. Ular odatda muz kristallari tufayli oppoq va nurli ko'rinadi, bu esa diniy tasvirlardagi farishtalar qanoti yoki Bibi Maryamning libosi assotsiatsiyasini yaratadi (В просиничном платё). Kechki g'ira-shira vaqtida yoki tong sahar oldidan atmosferada yorug'likning tarqalishi natijasida to'q ko'k-moviy rangga kirishi meteorologiyada ma'lim. Shoir ushbu meteorologik rang o'yinini Bibi Maryamning boshidagi moviy yopinchiqqa o'xshatadi. She'r diniy-falsafiy va lirik peyzaj asosida yozilganligi bois undagi pafos g'amginlik, mistik kayfiyat va chuqur gumanizmga yo'l ochadi. Shu bois ham ilk misralarda biz antitezani uchramiz. Shoir moddiy dunyo hodisalarini (shamol, xazon) inkor etib, o'quvchini metafizik dunyoga olib kiradi. Natijada, osmon ko'rinmas chodirga, bulutlar yengil qanotlarga aylanadi. Asosiysi, she'rda "Воскресшего Христа" va uni yana "Mixlash/ Qurbon qilish" (Распятъ) tushunchalari yonma-yon kelishi natijasida antiteza hosil bo'ladi. Shu o'rinda shoir falsafiy qarashlarni ham berib o'tadiki, uni qarashlarida insoniyatning hamisha yaxshilikni qurbon qilishga tayyorligi o'quvchi qalbida ayonlasha boradi. She'rning so'nggi misralarida daraxt to'nkalari ostida ham ilohiy ochlikni berishga muvaffaq bo'ladi. "Men balki payqamay o'tib ketaman" degan xavotir ijodkorning ma'naviy mas'uliyatini ko'rsatadi. Xullas, S.Yesenin ushbu she'rda Rossiyaning real kuzgi, sokin ob-havosini olib, uni nasroniylik bilan shunday payvandlaydiki, natijada tabiat meteorologik hodisada bo'lishidan to'xtab, Masihning yerga tushish sahnasiga aylanadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества / Походаев В. С. – Москва: Искусство, 1986. – 445 с.
2. Архипов В.А. М.Ю.Лермонтов. Поэзия познания и действия. – Москва: Московский рабочий, 1965. – 472 с.
3. Есенин С. Полное собрание сочинений. – Москва: Наука, 1995. – С. 32.
4. Sohibova Z.N. O'zbek peyzaj lirikasi: genezisi, tabiati, va o'ziga xos xususiyatlari. Fil.fan.dok.(DSc), - Buxoro, 2026. – 272 b.